

**YOSHLARNING KITOBGA BO'LGAN MUHABBATINI OSHIRISHGA QARATILGAN
TARBIYAVIY ISHLAR**

ФИО автора: *Xakimjanova Muxlisa Rahimjon qizi*

Учебное заведение (населенный пункт): *Sergeli tumani 68-umumiy o'rta ta'lim maktabi bitiruvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida kitob mutolaasi hamda kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir qarorlar, qog'oz kitob va elektron kitoblarning inson hayoti uchun ijobiy va salbiy tomonlari, har ikkala o'qish formatining hayotga tatbiqi, hozirgi zamon texnologiyalarining zararli jihatlari, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishda ota-ona va ustozning o'rni hamda mas'uliyatlari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Ma'naviy-ma'rifiy, salohiyat, do'st, kitob, elektron kitob, smartfon, telefon, kompyuter, adabiyot, ma'naviyat, inson, yoshlar, qog'oz.*

Kitob – umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbayi, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo'luvchi sodiq do'st. Kitob insonning ma'naviy kamolotini ta'minlashda eng kuchli qudratga ega vosita hisoblanadi. Shu bois, azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelishgan. Darhaqiqat, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. Kitob – ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy va estetik qarashlarni shakllantirish vositasi. Axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiy kitob haqida shunday deydi: “Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan aziroq va yoqimliroq suhbatdosh yo'qdir. Kitob fasohat, balog'atda, latofatda tengi yo'q, munofiqlikdan xoli hamrohdir. Yolg'izlikda va ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq bor-u, na gina. U shunday hamdamki, so'zlarida yolg'on va xato bo'lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik yetmaydi. U o'z do'stining dilini og'ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g'iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do'st ichida barcha ilm-u hilm mujassamdirki, u kishilarni o'tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi. Shuning uchun ham “Kitob – aql qal'asidir”.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e'tibor berilib, ko'plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi, 2017-yil 13-sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini

rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi va 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo'lgan munosabatning ijobiy tomonga o'zgarishiga zamin yaratdi.

“Kitob – tafakkur qanotidir”, degan edi adibimiz Oybek. Kitob o'qigan inson, qaysi sohada ishlamasin, to'g'ri fikrlash, oq-u qorani ajratish, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bundan tashqari, nutqi ravon, odamlarni o'z ortidan ergashtira oladi. Yoshlarning ma'naviyatli, salohiyatli, barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida ota-ona va ustozlarning o'rni juda katta. Ularga ta'lim-tarbiya berish, haq yo'ldan yurishini ta'minlash, kitobga bo'lgan muhabbatini oshirish, turli xil ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan zararli oqimlardan saqlash va xalq so'zi bilan aytganda, “oq-u qorani tanitish” mazkur insonlarning vazifasidir.

XXI asr texnologiya asri deb aytilishi bejiz emas. Kundan kun rivojlanib borayotgan texnologiyalar bizni o'z ajoyibotlari bilan hayratda qoldirmoqda. Insoniyat tomonidan kashf etilayotgan turli-tuman texnologiyalar bu asrning rosmana texnologiya asri ekanligini ko'rsatadi. Xo'sh, shiddat bilan rivojlanib borayotgan texnologiyalar asrida kitobga o'rin bormi? Bundan tashqari, hozirda ko'plab ilmiy-texnik, badiiy adabiyotlar birinchi bo'lib elektron tarzda taqdim etilmoqda va birgina smartfon yuzlab, boringki minglab va hatto millionlab kitoblarni o'zida saqlashi va foydalanuvchiga ularni istalgan vaqtda o'qish imkonini berishi mumkin.

Qaysi biri yaxshiroq – oddiy kitob yoki elektron kitob? Oddiy kitobni o'qish jarayoni ko'pchilikka estetik zavq bag'ishlaydi. Axir odamning qog'ozli bilim manbayi yoki adabiy asar bilan aloqasini boshqa biron bir narsa bilan taqqoslash mumkin emas. Albatta, qog'ozli kitobni elektron kitob bilan taqqoslasak, unda ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Dastlab qog'oz nashrlarining afzalliklarini ko'rib chiqamiz:

- Uning hidi. Kitob sotib olish, uni ochish va yangi varaqlar hidini yoqtirish (ba'zi insonlarda)
- Sahifani sahifaga aylantirish. Bizga eng ma'qul bo'lgan iborani qalam bilan chizish uchun to'xtatish imkoniyatiga ega yoki biz yoqtirgan va unutmamiz juda ko'p bo'lgan bu iborani qo'l bilan nusxalash.
- Ularni javonda kichik xazina sifatida saqlash. Bizda shunchalik ulkan to'plam borki, ulardan faxrlanishimiz mumkin.
- Batareyasi yo'q. U har doim mavjud. Xohlagan vaqtingizda uni ochishingizga tayyor. Bunga elektr ta'minoti kerak emas, shunchaki zararlanmasligi uchun ehtiyot qilish zarur.

- Uni boshqa birovga qoldirish. Bu bizdan keyingi avlodlarning ma'naviy salohiyati uchun juda katta xizmat qiladi.

- Kitobni sevuvchilar uchun mukammal sovg'a. O'qishni yaxshi ko'radiganlar sovg'a sifatida yaxshi kitob kabi hech narsani qadrlamaydilar.

- Kitob do'konida yoki kutubxonada yurish. Bu insonga o'zgacha zavq keltiradi. U yerda yurish orqali siz hali bilmagan, eshitmagan kitobingizni kashf etasiz. Bu tajribani faqat son-sanoqsiz kitoblar atrofida o'tirganlar tushunadilar.

Kamchiliklari:

- Vaqt o'tishi bilan, agar ularga nisbatan minimal g'amxo'rlik qilinmasa yomonlashishi mumkin. Bu esa kitobning yo'qolishiga olib keladi.

- Uning yuqori narxi. Bizga qog'ozli kitob olishni ancha osonlashtiradigan ko'plab cho'ntak nashrlari mavjud bo'lsa-da, ular hali ham cho'ntaklarga qarab juda qimmat.

- Joy yetishmasligi. Kitoblar ko'paygani sari joy yetishmaslik kuzatilishi mumkin. Shuning uchun siz juda ko'p qog'ozli kitoblarni sotib olsangiz, bu kelajakda katta muammoga aylanish ehtimoli mavjud. Uyda ko'plab kitoblarni saqlash uchun sizda juda ko'p bo'sh joy bo'lishi kerak.

- Aksariyat qog'oz nashrlari og'irligi katta, shu sababli siz sayohat paytida ko'p kitoblarni olib ketolmaysiz.

- Qog'oz ishlab chiqarish uchun o'rmonlarni yo'q qilish atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatadi

Ma'lumot! Tadqiqotlarga ko'ra, qog'ozdagi matnni o'qish ma'lumotni idrok etishni sezilarni darajada yaxshilaydi.

Elektron ma'lumot manbalari tobora ommalashib bormoqda, ammo biron bir qurilma mukammal emas. Shuning uchun, qog'oz nashrlari singari, ularning ham o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari bor.

Afzalliklari:

- Elektron kitoblarning qog'ozli kitoblardan asosiy ustunligi shundaki, joy egallamaydi, faqat Mb. Ular chang yig'ishmaydi va siz ularni tozalashingiz shart emas.

- Turli-tuman asarlar jamlangan bo'lsada, ular qog'oz kitoblar yig'indisidek og'irlik bermaydi.

- Siz elektron kitobni yotoqda bemalol yotgan holda o'qishingiz mumkin.

- Izoh berib, tagiga chizib qo'yish imkoniyatiga ega.

- O'qish jarayonida ko'zingiz toliqib qolmasligi uchun uning yorug'ligini "o'qish rejimi"ga o'tkazib qo'yishingiz mumkin.

- Siz izlayotgan kitobingizni zudlik bilan, kutmasdan topib olasiz. Kitob do'koniga yoki kutubxonaga borish uchun vaqt sarflash shart emas.

Kamchiliklari:

•Doimiy zaryadlash zarurati. O'qishning eng qiziqarli nuqtasida batareya quvvati tugaydi.

•Bu hamma uchun emas, chunki texnologiya bo'yicha asosiy yoki minimal bilimlarni talab qiladi. (texnologiya haqida hech narsa bilmaydigan keksa odamlarga mos kelmaydi)

•Ularni sindirish juda oson. Shu sababli bu uning egalari uchun katta iqtisodiy yo'qotishlarni anglatadi.

•Buzilgan taqdirda sevimli asarlarni yo'qotish ehtimoli.

• Estetik zavq yetishmasligi.

To'g'ri, o'nlab kitoblar yuklangan elektron kitob hayotni ancha osonlashtiradi, ammo elektron kitobni rad etgan qog'ozli kitoblarga sodiq odamlar hali ham bor. Agar biror kishi o'qishni yaxshi ko'rsa, unda u kitobning qanday shaklda bo'lishi muhim emas – qog'ozda yoki elektron shaklda. Garchi ko'pchilik hali ham farq bor deb hisoblashadi.

Ma'lumot! Tadqiqotlarga ko'ra, oddiy kitobni o'qish xuddi shu asar bilan elektron shaklda tanishishdan ancha kam vaqt talab qilishi aniqlandi. Shuningdek, ilmiy ma'lumotlar bilan ishlashda qog'ozdagi matnni idrok etish osonroq bo'ladi.

Olimlar kashf etgan yana bir muhim xususiyat – bu turli xil ommaviy axborot vositalaridan adabiyotlarni o'qiyotganda tananing fiziologik reaksiyasi o'zgaradi. An'anaviy muhitdan asar o'qiyotganda, yurak mushaklarining ishi tezlashadi, bu esa idrokning yorqinlashuvini ko'rsatadi. Albatta, har kim o'zi istagan vositani tanlash huquqiga ega. Kimdir adabiyotni qog'oz ko'rinishida o'qishni ma'qul ko'rsa, boshqalari o'zlarining elektron moslamalari orqali tanishishni afzal deb biladi.

Kitob xuddi nonga o'xshaydi, kompyuter va telefonlar esa tortga. Hech bir odam hech qachon nondan bezimaydi, tort esa ikki bo'lakdan so'ng me'dangizga tegadi.

Qo'lingizdagi smartfonda qancha ko'p elektron kitob bo'lmasin, u hech qachon oddiy kitob o'rnini bosolmaydi. Keling, sizga smartfonlar haqida qiziq ma'lumotlarni keltiraman:

1. Smartfon 1 yil ichida shuncha ko'p zararli modda yig'adiki, buncha modda hatto hojatxonada ham yo'q!

2. Telefon va kompyuter o'z joniga qasd qilish ehtimolini kamida 2 marta oshiradi!

3. Smartfoningizda oddiy parolni yechish uchun sarf etadigan kunlik vaqtingiz kamida 1 bet maqolani o'qishga sarf bo'ladigan vaqtga teng!

4. Qorong'ida yorqin ekranga termulib o'tirish 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lganlar orasida ko'rish zaiflashuviga asosiy sabab bo'lmoqda.

5. Kuniga 3 soatdan ziyod smartfondan foydalanish bo'yin va bel osteoxondroziga sabab bo'ladi.

6. Doimiy ravishda telefonni olib yurish yoki uzoq vaqt kompyuterda o'tirish yurakka zaruriy moddalarni tashuvchi qondagi gemoglobinni kamaytiradi. Bu esa yurakning ishdan chiqishiga olib keladi!

Hozir ko'pchilik yoshlar kitoblarning skaner qilingan yoki maxsus dasturdagi variantini o'qishni afzal ko'rishadi. Chunki ularni istalgan vaqtda o'qish imkoniyati, bir vaqtda ko'plab kitoblarni hech qanday og'irliksiz olib yurish mumkinligi juda katta qulaylik yaratadi. Shunga qaramay smartfon, kompyu-ter yoki boshqa qurilmalar orqali kitob o'qish kutilga-nidek aqliy samara bermaydi. Oddiy kitob o'qish asablarni tinchlantiradi, diqqatni jamlashga yordam beradi, insonda qiziqish tuyg'usini oshiradi, aqliy rivojlanishni tezlashtiradi. U o'zidan ko'zni charchatuvchi yorqin nur chiqarmasligi, zararli to'lqinlar tarqatmasligi, elektr quvvati talab qilmasligi va turli SMSlar bilan sizni chalg'itmasligi hisobiga o'zidagi bilimlarni sizga yengilroq o'rganishingiz uchun yordam beradi.

Stiv Jobs, Bill Geyts, Mark Sukerberg kabi dunyo tanigan IT sohasi bo'yicha gigant kompaniya egalari ham o'z-o'zidan boy bo'lib qolmagan. Ular siz kabi barcha bilimlarini kompyuter yoki internetdan olmagan, ular-ning hammasi kitob bilan do'stlashgan. Aynan oddiy kitob hisobiga ular o'zlarining hozirgi muvaffaqiyatlariga erishganlar. Bill Geyts har yilning boshida o'tgan yili shaxsan o'zi o'qib chiqqan kitoblar nomini aytib, unga havas qiluv-chilarga ham shu kitoblarni o'qib chiqishni taklif qiladi. "Facebook" asoschisi Mark Sukerberg ham dunyo-ning eng boy odamlaridan biri bo'lishi hamda eng zamonaviy kompyuterlarga ega bo'lishiga qaramay, oddiy kitoblarni o'qiydi. Eng rivojlangan va dunyoga mashhur ta'lim muassa-salari — Harvard yoki Oksford universiteti talabalari ham oddiy kitoblarni o'qishni yaxshi ko'rishadi. Ular kutubxona-larda soatlab vaqtlarini kitob o'qish bilan o'tkazishadi. Shubhasiz, ular kitob kamolotga erishtiruvchi eng ishonchli vosita ekanligiga ishonishadi.

Shuni unutmashlik lozimki, inson harf yozishni boshlaga-nidan beri kitob mavjud bo'lib kelgan. Aynan o'qish va yozish insonning rivojlanishida eng katta vosita bo'lgan. Aziz do'stim, agar sen ham tarixda iz qol-dirishni istagan mashhur shaxs bo'lmoqchi bo'lsang kitob o'qi! Zero, tarixda iz qoldirgan odamlarning bari kitobni eng yaqin do'sti deb bilgan.